



INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING MUHIMLILIGI

Zohidova M.F.

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti, Xorijiy tillar kafedrası
muxlis8989@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilini o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan shu jumladan, tarqatma materiallardan o'rinli foydalanish va o'qituvchning o'z ustida izlanishi, ma'suliyatni his etishi, darslarga yangiliklar kiritishi, darsning qiziqarli va jonli bo'lishini ta'minlashi haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *tarqatma materiallar, foydalanish, qiziqarli, darslar, tushunarli.*

DOLZARBLIK

Ma'lumki, hozirgi paytda ingliz tilini o'qitishda targatma materiallar orqali turli hil interaktiv metodlardan foydalanilmoqda. Bu esa, albatta, dars jarayonini qiziqarli va tushunarli qilib olib borilishiga hizmat qiladi. Ilgari ingliz tilini o'rgatayotganda shunchaki darslikdagi mashqlar orqali olingan bilimni mustahkamlash bilan kifoyalanib qolar edik. Hozirgi kunda esa turli hil multimediyalar va targatma materiallar orqali bu jarayonni yanada tushunarliroq va qiziqarli ravishda olib borish imkoniyati mavjud.

MAQSAD

Avvalambor, tarqatma materiallar tayyorlash uchun o'qituvchi o'z ustida ham ishlashi kerak bo'ladi, ya'ni darslikda berilmagan ma'lumotlarni va mashqlarni boshqa kitoblardan yoki internetdan izlanib kerakli ma'lumotlarni tanlab olishi kerak bo'ladi. Bu esa albatta, o'rganishdagi qiziqishini yanada orttirib boradi. Ingliz tili darslari davomida texnologiyalarni qo'llashni ba'zi o'qituvchilarning bilmasliklari va foydalanmasliklari talabalarning birmuncha zerikishiga olib keladi. Aynan shu sababli ya'ni talabalarning ishtiyogini so'ndirmaslik uchua dars davomida texnologiyalardan va hech bo'lmaganda kamyuterdan foydalanish talabaning qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Zero, o'rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarning o zlashtirishiga qarab tayyorlangan tarqatma materiallar albatta samara beradi.

TADQIQOT MATERIALLARI

Aksincha, biz o'qituvchilar ushbu talablar asosida tarqatma materiallar tayyorlamasak yoki bilimi yaxshi bo'lmagan talabalarga murakkab so'zlar va iboralardan iborat bo'lgan videolar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki multimediya orqali namoyish qilsak, bilimi yaxshi bo'lgan talabalarga esa aksincha juda ham sodda so'zlardan iborat bo'lgan targatma materiallarini taqdim etsak talabaning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishi asta-sekin so'na

boshlaydi va darsga qiziqmay uni o'zlashtirmay qo'yadi. Demak, bundan kelib chiqadiki, o'qituvchi multimediyalardan shunchaki foydalanmay, unga tog'ri keladigan va talabaning bilimini oshirishga hizmat qiladigan targatma materiallar ham tayyorlashi va undan o'rinli ravishda foydalanishi kerakdir. Masalan, tinglab tushunish darslarida audio matnlarni qoyib eshittirishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari mavjud. Unda asosiy maqsad o'rganuvchi eshitayotgan audio materialni tushunib olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishi muhimdir. Buning uchun esa eng avvalo, muhitni audio materailni qo'yib eshittirish uchun hozirlash, bunda tinglovchilar osoyishta muhitni ta'minlashlari, o'qituvchi esa qo'yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning yaxshi ishlayotganligiga e'tibor qaratishi va audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlaning tayyor ekanligi va o'rganuvchilar targatma materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Qo'yilgan barcha talablar amalga oshirilgach, o'qituvchi audio materialni o'rganuvchilarga qo'yib eshittirishni boshlashi mumkin. Eshittiruv kamida ikki marta amalga oshiriladi, aks holda til o'rganuvchilar mavzuni tushunmasliklari va audio material eshitib bo'lingach bajariladigan mashqlarni to'g'ri bajara olmasliklari mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

Shuningdek, so'zlashib va yozib o'rganishda ham texnologiyadan foydalangan holda dars o'tish jarayonida multimedialardan foydalanib, o'rganuvchilarga video-filmlar, roliklar namoyish qilish va uni muhokama qilish juda samarali usul hisoblanadi. Bunda o'rganuvchilarga tanish bo'lgan lug'at ishlatilishi, yangi va murakkab so'zlar ishtirok etgan bo'lsa so'zlarga izoh berish, yangi so'zlar bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajarib olingach, video materialni namoyish etish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ham albatta tinch, shovqin bo'lmagan muhit, qulay va mavzuga qiziqishayotganliklariga amin bo'lgach video materialni qo'yib berishi kerak. Video tugagach o'qituvchi o'quvchilarning video-film haqidagi fikrlari bilan qiziqishi, mashqlar bajarishi kerak bo'ladi. Ushbu bosqichlar to'g'ri amalga oshirilgach, bu darslar albatta o'rganuvchilarning qizigishlari va bilimlarining ortib borishiga katta hissa qo'shadi. Bundan kelib chiqadiki, darslarimizni yanada boyitish, o'rganuvchilarni qiziqтира olish, ularning bilimlarini boyitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ularni to'g'ri va o'rinli qo'llay olish esa yutuqlarimizning asosiy garovi hisoblanadi.

Albatta, ingliz tili darslarida zamonaviy texnologiyalar kompyuter, CD yoki DVD qo'llash orqali turli hil multimediyalarni namoyish etishimiz mumkin. Bu ta'lim jarayonini yanada olg'a siljishiga va o'sib borayotgan yosh avlodga ingliz tilini tezroq o'rganish imkonini beradi. Bunda talaba o'zida ingliz tilidagi barcha ko'nikmalarni rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.



XULOSA

Ushbu multimediyalarning namoyishida ham targatma materiallardan keng fortalanilinish talabaga berilgan video ma'lumotni yaxshi o'zlashtirib tushunib olish anchagina yengillik beradi. Shunday ekan, bizga ma'lumki, har qanday interaktiv metodlar tarqatma materiallar orqali olib boriladi.

Hattoki, darsni o'yinlar bilan olib bormoqchi bo'lsak ham, o'yin shartini og'zaki tushuntirishimizga qaramay uning asosiy qismi targatma materialda ko'rsatilgan bo'ladi (rasmlar jamlanmasi, krossvord turlati, savollar va h.z). Ayniqsa, guruh bo'lib ishlaganda ham tarqatma materiallar juda qo'l keladi. Bundan kelib chiqadiki, darslarni ham qiziqarli ham tushunarli qilib olib borishda, talabalarning tilga bo'lgan qiziqishini va bilimini oshirib borishda zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda tarqatma materiallarning ham o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axmedova O.I. "Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish." Текст научной статьи по специальности «Науки о Земле и смежные экологические науки» – 2022.

2. Jumanova D. A, Eshonxonova M. N, Karimova K. A, "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish." «Научный импульс» Декабрь, 2022.

3. Mo'minova F. M. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish." Молодой ученый. 2020. № 18 (308).

4. Джалилова Н.Д. "Булажак шифокорларнинг инглиз тилини ушлаштириши касбий компетентликнинг муҳим элементи сифатида." Ўзбекистон Миллий университети, Хабарлари журнали. Том 3. Номер 1. Тошкент. 2021. 145-148.

5. Давлетярова Н. "Тиббиёт соҳа мутахассислар учун чет тилларни ўшлаштиришнинг ўзига хос хусусияти ва аҳамияти." Замонавий тилшунослик, адабиётшунослик, таржимашунослик ва хорижий тиллар ўқитишнинг муаммолари. VI- илмий-амалий анжумани. 2017. 97-99.

6. Махаметова Д. "Инглиз тили факультатив машғулотида талабаларнинг амалий кўникмаларини шакллантиришда лойиҳа методи." Ўзбекистонда хорижий тиллар. 2017. 199-200.

7. Buranova D.D. "The importance of english language learning in the training of competitive staff in medical higher education." Педиатрия научно – практический журнал. № 1. 2021. 264-266.

8. Talipova Sh.Sh. "Tutorials and methods of studying foreign languages." Халқаро илмий журнал – Theoretical and applied sciences, №04(36), Казахстан, г.Тараз, 2016 йил, 115-117.

9. Абидова М, Гузачева Н. "Особенности преподавания медицинской терминологии на занятиях по английскому языку." Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice. Т. 6. №5. 2020. 434-437. <https://www.bulletennauki.com> <https://doi.org/10.33619/2414-2948/53>

-
10. Буранова Д.Д. “Совершенствование профессионально направленной методики обучения английскому языку студентов-медиков.” «Тенденції та перспективи розвитку Науки і освіти в умовах глобалізації» Переяслав – 2022. 95-100.
 11. Лутфуллаева Х.А. «Интерактивное обучение на уроке английского языка» // Вестник науки и образования. № 11 (65). Часть 3. Москва. 2019. 73-75.
 12. Набиева Д.Р. «Правила работы в малых группах», Научно-практический журнал « Наука и социум», №11 (42), 2017.
 13. Талипова Ш.Ш. «Особенности эвристического подхода в обучении» Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Россия, №95(23) май, 2017, 795-799.
 14. Шарипова Ф.И. “Проблемы в обучении английскому языку студентов медицинских институтов.” Педиатрия. №1, 2022. 339-342.
 15. Буранова, Дилафруз Джамалдиновна. "ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННОГО УЧИТЕЛЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА." Теория и практика современной науки 11 (2017): 38-41.
 16. Махаметова, Д., and Феруза Шарипова. "A role of debates in problem-based teaching english language." in Library 21.1 (2021): 49-50.
 17. Nuritdinovna Ihamova, I., Shorasulovnalatipova, D., Atabekovnarakhimova, S., & Shavkatovnakhusainova, G. (2020). Improving the grammatical skills of students studying english using ICT. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(S6), 660-665.
 18. Гузачева, Н. (2020). Технология zoom как эффективный инструмент для дистанционного обучения в преподавании английского языка студентам-медикам. in Library, 20(4), 457-460. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/20662>
-